

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning mohiyati va zaruriyati

Xujakulova Nigora Rustamovna, Sharofova Saida Alimurod qizi

Суть и необходимость развития семейного предпринимательства в сельском хозяйстве

Хужакулова Нигора Рустамовна, Шарофова Саида Алимурат кизи

The essence and necessity of developing family entrepreneurship in agriculture

Khujakulova Nigora Rustamovna, Sharofova Saida Alimurat kizi

Received: May 18, 2025 Revised: May 19, 2025 ■ Accepted: May 20, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqola qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasidagi oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi va uning ahamiyati, shuningdek, bu sohada yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqola oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini tahlil qilib, uning qishloq hududlarida barqaror rivojlanish va aholi farovonligini ta'minlashdagi rolini belgilaydi. Shuningdek, maqolada qishloq xo'jaligi sohasida oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan siyosat va amaliy choralar ko'rib chiqiladi.
- **Kalit so'zlar:** Qishloq xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik, ijtimoiy farovonlik, ekologiya, siyosat, amaliy choralar.
- **Аннотация:** Статья посвящена изучению теоретических основ семейного предпринимательства в сельском хозяйстве. Рассматриваются развитие и значение семейного предпринимательства в аграрном секторе Узбекистана, а также проблемы, возникающие в этой сфере, и пути их решения. В статье анализируются экономические, социальные и экологические аспекты семейного предпринимательства, определяется его роль в обеспечении устойчивого развития и благополучия населения сельской местности. В статье также рассматриваются политические и практические меры, необходимые для поддержки семейного предпринимательства в сельском хозяйстве.
- **Ключевые слова:** Сельское хозяйство, семейное предпринимательство, экономическое развитие, устойчивость, социальное благосостояние, экология, политика, практические меры.
- **Abstract:** This article is devoted to the study of the theoretical foundations of family entrepreneurship in agriculture. The development of family entrepreneurship in the agricultural sector of Uzbekistan and its significance are considered, as well as the problems arising in this area and ways to solve them. The article analyzes the economic, social and environmental aspects of family entrepreneurship, determines its role in ensuring sustainable development and well-being of the population in rural areas. The article also considers the necessary policy and practical measures to support family entrepreneurship in agriculture.
- **Keywords:** Agriculture, family entrepreneurship, economic development, sustainability, social welfare, ecology, policy, practical measures.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi – iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining oziq-ovqat ehtiyojlarini ta'minlash, ekologik barqarorlikni saqlash va hududlarning ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasida bugungi kunda oilaviy tadbirkorlikning roli va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Oilaviy tadbirkorlik, ayniqsa, qishloq hududlarida iqtisodiy barqarorlikni saqlash, ishsizlikni kamaytirish va qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi o'ziga xos nazariy va amaliy masalalarni keltirib chiqaradi.

Bu masala nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ekologik va huquqiy nuqtai nazardan ham dolzarb ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi sohasida oilaviy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, boshqaruv modeli, resurslar va imkoniyatlar ham bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning nazariy asoslari o'rganilishi, ko'plab ilmiy manbalar va tadqiqotlar asosida amalga oshirilgan. Bu sohadagi izlanishlar, bir tomondan, oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy modelini va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishga qaratilgan, ikkinchi tomondan esa, oilaviy biznesning ijtimoiy va ekologik tomonlarini yoritishga oid ishlanmalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodchi olimlardan R.Xudoyberganovning "Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlik va uning rivojlanish yo'llari" kitobida qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va uning mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini tahlil qiladi. Xudoyberganov, oilaviy tadbirkorlikning asosiy afzalliklarini, xususan, oila a'zolarining kooperativ ishlashi, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va qishloq aholisi uchun qo'shimcha daromad manbai sifatida taqdim etilishini ta'kidlaydi [1].

N.Abdullaeva esa o'z tadqiqot ishlarida qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning samaradorligini o'lchashda qo'llaniladigan metodlarni tahlil qiladi. Shuningdek oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda amalga oshiriladigan siyosat va amaliy choralarni muhokama qiladi. Muallif qishloq joylarda oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini ko'rsatib beradi [2].

Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning nazariy asoslarini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar turli jihatlarini yoritadi. Ko'pgina adabiyotlar sharhi orqali ko'rish mumkinki,

oilaviy tadbirkorlik qishloq xo'jaligida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur siyosat, resurslar va amaliy choralalar bilan bog'liq ko'plab masalalar ilgari surilgan. Bu adabiyotlar, o'z navbatida, qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning mohiyati va zaruriyati o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi boshqa sohalarga qaraganda iqtisodiyotda yetakchi tarmoq hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda aholi bandligini ta'minlash bilan birga aholi uchun oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun bir qancha imkoniyatlar mavjud. Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirib borish bozor islohotining bosh yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Agrar tadbirkorlik har qaysi mamlakatda va uning ayrim hududlaridagi aniq demografik va iqtisodiy holatlarni hisobga olgan holda rivojlanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki mamlakatimiz aholi soni yildan yilga oshib bormoqda. Shuningdek aholining bandligi iqtisodiyotda ishsizlikning kamayishiga olib keladi [4]. O'z navbatida aholining o'z o'zini band qilishi mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omili deb qarash mubolag'a bo'lmaydi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir [3].

Mamlakatimizda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning biznes g'oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish borasida qator choralalar ko'rilmogda. Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga

hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda [6]. Shu bilan birga, aholining mehnat orqali daromad topishga bo'lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhtoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni, aholi tomorqalari va bo'sh ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda.

Aynan agrar sohada tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy muamolar ya'ni aholining oziqovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ularga iste'mol uchun yetkazib berish bilan birga aholi bandligini ta'minlash muamolarini ham hal qiladi. Hozirgi kunda daromadli yo'nalishlardan biri desak ham mubolag'a bo'lmaymiz. Har bir sohada olimlarning turlicha qarashlari va qarama-qarshi fikrlari mavjud bo'lib, har sohada tadbirkorlikni muvaffaqiyatli shakllantirish shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarining asosida foyda olish va investitsiya kiritish deya ham ta'riflanadi.

Agrar sohada tadbirkorlik sub'ektlari uchun keng imkoniyatlar yaratilib bir qancha cheklovlar olib tashlandi. Shuni ham aytish lozimki mamlakat iqtisodiyoti biz so'z bilan aytganda qishloq xo'jaligi tushuniladi. Aholining oziq-ovqat bilan to'yinganligi, agrar sohada aholining bandligini ta'minlash bularning barchasi mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish keng kategoriya va ijtimoiy-iqtisodiy omil hisoblanadi. Ta'kidlash joiziki so'nggi yillarda mamlakatimizda agrar sohada kichik biznes hamda oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish borasida bir qator ilmiy amaliy ishlar olib borilmoqda. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bozor mexanizmini yo'lga qo'yish hamda rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlar hozirgi kunda yuqori kategoriyada turmoqda [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning nazariy asoslarini o'rganish orqali bu sohaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Oilaviy tadbirkorlikning qishloq hududlarida rivojlanishi nafaqat aholi daromadlarini oshirish, balki jamiyatda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish va ekotizimni saqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rganilgan manbalar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu

sohadagi muvaffaqiyatga erishish uchun to'g'ri boshqaruv, resurslarni samarali taqsimlash, innovatsiyalarni joriy etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosatlarining amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqotda, qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun bir qator muhim omillarni aniqladik, jumladan, ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy yordamni kengaytirish zarurligi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikning samarali rivojlanishiga imkon beradigan huquqiy va normativ bazaning mustahkamlanishi, ta'lim va malaka oshirish tizimining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega [10].

Yakuniy xulosada shuni ta'kidlash joiziki, qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning nazariy asoslarini mukammal o'rganish va amaliyotga tadbiiq etish orqali, bu soha orqali jamiyatning turmush darajasini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ekologik xavfsizlikni saqlash mumkin. Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning uyg'unlashgan ishlashi nafaqat qishloq, balki butun jamiyat rivojiga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Xujakulova Nigora Rustamovna** – Qarshi davlat texnika universiteti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, / **Хужакулова Нигора Рустамовна** – доцент кафедры инновационной экономики Каршинского государственного технического университета / **Khujakulova Nigora Rustamovna** – Associate Professor of the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University

► nigorakhujakulova86@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0001-2936-1972>

2. **Sharofova Saida Alimurod qizi** – Qarshi davlat texnika universiteti 1-bosqich magistranti / **Шарофова Саида Алимурат кизи** – студентка 1 курса магистратуры Каршинского государственного технического университета / **Sharofova Saida Alimurat kizi** – 1st year master's student, Karshi State Technical University

► Sharofova.saida@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0008-3680-5456>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. R.Xudoyberganov Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlik va uning rivojlanish yo'llari. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi nashriyoti 2013 yil
- [2]. N.Abdullaeva Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2017 yil
- [3]. D.S.Qosimova "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" Darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi nashriyoti. Toshkent-2020.: 328 bet.
- [4]. Bayzakova D.F. Small business as the Main Driver of Economic Development. International journal on economics, finance and sustainable development. Vol. 5 No. 4 | April 2023.Indoneziya
- [5]. Bayzakova D.F. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 3 | 2023.
- [6]. Djumanazarovna K. G. The role of the state in the formulation of innovation strategy in industrial enterprises // Academy. – 2020. – №. 4 (55). – C. 36-38.
- [7]. Duckworth-Chambless T., Quinones A., Mathiassen L. A Model to Manage Succession in Family Business // Available at SSRN 4322700. – 2023.
- [8]. Khasanova G. D., Kh Y. Y. Government support for the formation of innovative strategy //European research. – 2020. – №. 5. – C. 63.
- [9]. Navotova D.I. Possibilities of applying world experience in efficient use of irrigated lands of the republic of Uzbekistan//International conference on scientific research in natural and social sciences. Canada conference. Volume 2. Issue 2. February 5th 2023. P. 182-186.
- [10]. <https://www.stat.uz/>.